



“O‘ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB MASALALARI VA UNI O‘QITISH METODIKASI MUAMMOLARI”

Mavzusidagi II an’anaviy ilmiy – amaliy
xalqaro anjuman materiallari



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

***“O'ZBEK FILOLOGIYASINING DOLZARB
MASALALARI VA UNI O'QITISH
METODIKASI MUAMMOLARI ”***

mavzusidagi II an'anaviy ilmiy – amaliy

**XALQARO ANJUMAN
MATERIALLARI
2-KITOB**

(13-dekabr 2023-yil)



JIZZAX-2023

XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA JON VA RUH TALQINI

*Ibotova Madina Otabekovna,
BuxDPI o'qituvchisi*

Jon, ruh aslida falsafiy tushuncha hisoblanadi. Jon va ruh sirtdan qaraganda bir narsadek, ammo faylasuf olimlar bu haqda har xil fikrlar bildirganlar. Mashhur faylasuf Lukretsiy Kar “Jon butun tanaga yoyilgan bo'lsa, ruh ko'krakning o'rtasiga joylashgan”, deb hisoblaydi [3.126.].

Jon esa fors-tojikcha so'z bo'lib, badiiy adabiyotda keng qo'llaniladi. Bu so'z lug'atlarda turli xil izohlanadi. Jon diniy tasavvurlarda jonivorlar barhayotligining o'lganda tanadan judo bo'ladigan, odamda esa ruhga aylanib abadiy yashaydigan ilohiy omil deb tushunilgan. Jon ibtidoiy xalqlarning qarashlarida ham o'ziga xos talqin etilgan. Ibtidoiy odam tasavvurida jon tanadan aniq ajralib turmaydi. Diniy tushunchaga ko'ra, jon moddiy dunyoga mutlaqo aloqasi bo'lmagan, tanadan mustaqil yashay oladigan alohida bir narsa [4.629].

Jamiyatda sodir bo'layotgan, insoniyat olamidagi har bir hodisa xalqning adabiyotida, san'atida o'z ifodasini topadi. Kishilarning qarashlari, orzu-niyatlari badiiy adabiyotda aks etganligi bois har qanday so'zning, tushunchaning dastlabki ifodasi (garchi u poyetik obraz sifatida shakllanmagan bo'lsa ham) xalq og'zaki ijodida uchraydi. Keyinchalik u yozma adabiyotda o'z aksini topadi, davrlar o'tishi bilan ijodkorlarning so'zga yuklagan umumiy ma'nosi kengayib, chuqurlashishi natijasida uning g'oyaviy-badiiy qimmati ortib boradi.

Badiiy adabiyotning ibtidosi bo'lgan xalq og'zaki ijodida “jon” so'zi ruhga nisbatan ko'p qo'llanilgan. Buni xalq kitoblarida, dostonlarida, har kun ishlatiladigan maqol va iboralarda ko'rish mumkin. Xalqimizning so'zlashuv tilida jon so'zi bilan bir qator iboralar mavjudki, ular turli xil ma'nolarda keladi. Masalan, “jon bermoq”, “jon chiqarmoq”, “jonini qurbon qilmoq” singari birikmalar “vafot etmoq” ma'nosini ifodalaydi [4.286.]. “Jondan sevmok” - qattiq sevmok, jonim bilan – chin yurakdan, jonga tegmok va jondan to'y (dir)moq-bezdirmok ma'nolarini ifoda etadi.

Jon so'zi juda keng va serqirra bo'lib, u biror narsaning hayot manbai, hayot bag'ishlovchisi degan ma'noda ham qo'llaniladi. Masalan, “Yomg'ir (suv)-ekinining joni” maqolida jon hayot manbai ma'nosida kelgan. Bundan tashqari, “jonim” erkalash so'zi ham borki, u sevilgan kishiga nisbatan qo'llaniladi.

Jonning xususiyatlari xalq maqollarida kengroq ifoda etilgan. Jumladan, “Jon bor yerda janjal bor”, “Yozga chiqqan jon o'lmas”, “Issiq jon isitmasiz bo'lmas” kabi maqolalarda jon – inson ma'nosini ifodalaydi. “Jon qiynalmay yumush bitmas, talab bo'lmay murodga yetmas” maqolida ham jon so'zi vujud ma'nosini ifodalamoqda, ya'ni inson qiynalmasdan, mashaqqat chekmasdan murodiga yeta olmaydi.”Til-tan qorovuli, aql-jon qorovuli”. Ya'ni tanning omonligi tilingga bog'liq, aql bilan ish yuritsang, joning ham salomat bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodiga mansub maqollarda jon shu tarzda ifodalansa, lirik qo'shiqlarda, asosan, oshiq kechinmalaridan, yor vafosizligidan ozorlangan

“jon”ning poyetik ifodasini kuzatish mumkin. Qo‘shiqalarda “ko‘ngil armoni, jonimsan”, “kel ey dilbari jonon”, “dilu jonim yoqib ketdi” kabi qator istiorali birikmalar keng qo‘llanilgan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri hisoblangan dostonlarda ham “jon” atamasi ko‘plab uchraydi. Masalan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida shunday o‘rinlar bor: “...Ravshan ko‘r o‘g‘li Go‘ro‘g‘lini uchratib xursand bo‘ladi va Xudoga murojaat qilib:

*Menda edi bergan joning omonat,
Omonatga qilganim yo‘q xiyonat.
O‘g‘limning quchog‘i menga g‘animat
Rozidurman, endi olsang jonimni, -*

deb jonini taslim qilib qo‘ydi” [2.64.].

Xalqona qarashlarda jonning azaldan insonlarga Xudo tomonidan omonat topshirilganligi va vaqt-soati yetgach, uni, ya‘ni jonni o‘z egasi qaytib olishiga ishonish ko‘zga tashlanadi.

Jon kishining tanida bo‘lganda unga hayot bag‘ishlaydi, uni tabiat va jamiyatning faol a‘zosi bo‘lishiga imkon tug‘diradi, aql va fe‘l – atvor beradi. Ibtidoiy tasavvurlardan buyon xalq orasida jon, ruh haqida turli xil tushunchalar mavjudki, ularda ba‘zan jon va ruh bir narsa deyilsa, ba‘zan ular keskin farqlanadi. Insoniyat tasavvuricha, ruh hech qachon o‘lmaydi, uni Xudo ato qiladi va Xudo qaytib oladi, shundan so‘ng ham u tanadan ayri, abadiy yashaydi. Ruhni odamlar, asosan, inson vafotidan so‘ng tanadan ajralib, hech qachon o‘lmaydigan, ko‘zga ko‘rinmas, ammo o‘zi hamma narsani ko‘rib (uchib) yuradigan deb tasavvur qilishgan va bu tasavvur hozirgacha saqlanib qolgan. Bunday talqindagi ruh kishilar orasida “arvoh” (“ruh” so‘zining ko‘plik shakli) deb ham yuritiladi. Dunyodan o‘tgan kishilarga atalgan Qur‘on tilovatlari, xalqimiz orasida “is chiqarish” odatlari, “arvohlari shod bo‘lsin”, “ruhlari madadkor bo‘lsin” kabi duolar xuddi mana shu ma‘nodagi “ruh”ga qaratilgandir. Shuningdek, odamdagi tush ko‘rish jarayoni ham ruhning tanadan vaqtincha ko‘pchishi bilan izohlanadi. Demak, uxlagan kishining o‘lik bilan tenglashtirilishi ham shu bilan bog‘liqdir. Buni “Alpomish” dostonidan keltirilgan quyidagi parchada ham ko‘rishimiz mumkin: “Barchinni izlab Qalmoq yurtiga ketayotgan Alpomish chiltanlarning manzili bo‘lgan bir mozaratda tunab qoladi. Chiltanlar “ilmi karomat bilan Chilbir cho‘lidan, Oyna ko‘lidan, baxmal o‘tovda uxlab yotgan yeridan Barchinning ruhini tanidan olib keldi.

Alpomish uxlab yotgan yeridan buning ham ruhini tanidan oldi. Alpomishning ruhi bilan Barchinning ruhini o‘rtada bir yerga qo‘ydi. Bir kosa sharobi antahur chiltanlardan Barchinning ruhiga tegdi. Barchinning ruhi sharobni qo‘liga olib, Alpomishni ko‘rib, bir o‘zi ichgani ko‘ngli bo‘lmay, Alpomishning ruhiga oling-oling qilib, bir so‘zni aytib turgan ekan:

*Oling, allayor-allayor,
Keling. allayor-allayor,
Bo‘ling, allayor-allayor.
Kosa ushlab qo‘lim toldi.....”* [1.82].

Demak, jon va ruh xalq og'zaki ijodi asarlari, xususan, maqol, qo'shiq va dostonlarida kengroq qo'llanib, obrazlilik kasb eta borgan. Xalq og'zaki ijodi zaminida shakllangan bu qarashlar badiiy adabiyotda yanada sayqallanib, g'oyaviy-badiiy vazifa bajaruvchi obraz darajasiga ko'tarilgandir. Zero, poyetik obraz, timsolning kelib chiqishi har bir xalqning og'zaki ijodi, urf-odati, uni o'rab olgan tabiiy muhit bilan bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alpomish. Alpomish. Rustamxon. – T.: Adabiyot va san'at, 1985.
2. Go'ro'g'lining tug'ilishi. – T.: Yozuvchi. 1996.
3. Yo'ldoshev S. va boshqalar. Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. – T.: "Sharq". 2003.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. II jild. –M.: 1981. -715 b.

SIROJJIDDIN SAYYIDNING LAFZIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

*Ergasheva Rayhon O'tkir qizi,
Termiz davlat iqtisodiyot va servis
universiteti o'qituvchisi*

Ma'lumki, hozirgi davr adabiyotimizda ham mumoz adabiyotimizda bo'lgani kabi she'riy san'atlardan foydalanish shoirning tug'ma noyob iste'dodi va badiiy mahoratini namoyon etishida asosiy jihatlardan biridir. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid lirikasi she'riy san'atlarga boyligi bilan alohidalik kasb etadi. Shoir ijodining istiqlool davri she'riyatida tutgan o'rnini tadqiq etgan adabiyotshunos olim No'mon Rahimjonov "Talentlar ham har xil bo'ladi. deb yozarkan uning o'zi ijodiga nisbatan o'ta talabchan"[1;152], ekanligini ta'kidlab, unga yuksak baho beradi. Shoirning chinakam yorqin iste'dodi uning she'riy san'atlarni qo'llash mahoratida namoyon bo'ladi.

Sirojiddin Sayyid she'riyatining mavzulari doirasi keng. Shoir ijodida mumtozlar an'anasidan borib, janrlar turlligiga va yangicha poetic obrazlar takomiliga erishdi. Sirojiddin Sayyid o'z she'rlarida betakror poetic obrazlar yaratishda, albatta, badiiy tasvir va ifoda vositalari hamda she'riy san'atlardan unumli foydalangan. Shoir mumtoz she'riyatimiz poetikasida belgilangan tajnis, tanosib, tarse, ishtiqoq, ta'dil, tazod, tardi aks, jam, takrir, tazmin, muvozana, nido kabi lafziy san'atlardan unumli foydalanadi. Lafziy san'atlar haqida "Adabiyotshunoslik lug'ati"da shunday yoziladi: "She'rning ko'proq shakl tomoniga e'tibor qaratgan holda uning uslubiga bezak beruvchi san'atlar esa *lafziy san'atlar* deyiladi. Ayni paytda, bu o'rinda ma'no ham e'tibordan chetda qolmaydi, aksincha, "alfozni ma'nog'a tobi' qilmoq" (A.Husayniy) talabi qo'yiladi. *Ilmi badi'ga* oid asarlarda *tarse', tajnis, saj', qalb, tajziya, zulqofiyatayn* kabilar *lafziy san'atlar* sifatida tavsiflanadi" [1; 269]. Zamonaviy adabiyotimizning she'rshunos olimi Anvar Hojiahmedov lafziy san'atlar guruhiga

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi. Uyga vazifa sifatida darslikdagi 22-mashq beriladi. Izoh: o'quvchilar ijodiy qobiliyatlaridan foydalanib, mustaqil fikrlagan holda maqol asosida matn tuzadilar.

Qo'shimcha topshiriq. Olmoshlar ishtirok etgan xalq maqollaridan topib kelish aytiladi. Shu tarzda o'qituvchi darsni yakunlaydi.